

TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIY-ILMIY RENESSANS

Shoimov Quvonchbek

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: PhD A.Aripova

JIDU, O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti,

Annotatsiya:

Temuriylar davri – Markaziy Osiyoning eng yorqin madaniy va ilmiy uyg'onish davrlaridan biri bo'lib, bu davrda ilm-fan, adabiyot va san'at keng miqyosda rivojlandi. Amir Temur va uning avlodlari til masalasiga katta e'tibor qaratgan bo'lib, bu siyosat keyinchalik Temuriylar davrining yuksak madaniy darajaga erishishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, Alisher Navoiy turkiy tilning ilm-fan va adabiyot maydonida o'z o'rnini topishiga ulkan hissa qo'shgan. Uning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari turkiy tilning boyligini va adabiy til sifatida fors tilidan kam emasligini isbotlashga xizmat qilgan. Ushbu maqolada Temuriylar imperiyasida olib borilgan til siyosati, uning jamiyatdagi o'rni va ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Temuriylar, Samarqand, turkiy til, Shoxruh Mirzo, Alisher Navoiy, Xamsa, Abu Rayhon Beruniy.

CULTURAL-SCIENTIFIC RENAISSANCE IN THE TIMURID ERA Shoimov Quvonchbek

**1st year student at the Faculty of International Relations,
University of World Economy and Diplomacy**

Scientific supervisor: UWED, Associate Professor of the Department of Uzbek and Russian Languages, PhD Aziza Aripova

Annotation:

During the Timurid era, science, literature, and art developed on a wide scale in Central Asia, one of the brightest periods of cultural and scientific revival. The high culture of the Timurid period, relying on the language policy in Amir Timur and his descendants, has received great attention. In particular, Alisher Navoi played a decisive role in the promotion of the Turkic language to the level of scientific and literary language. His notable work Muhokamat al-Lug'atayn, was mainly targeted to show the richness of Turkic language and to verify that as a literary language Turkic was not any less refined than Persian. This article discusses the language policy framed by Timurid Empire, the role of this language policy in society and the impact of this language policy.

Key words: Timurid, Samarkand, Turkic language, Shahrukh Mirza, Alisher Navoi, Khamsa, Abu Reikhan Beruniy

КУЛЬТУРНО-НАУЧНЫЙ РЕНЕССАНС В ЭПОХУ ТИМУРИДОВ

Shoimov Quvonchbek

**Студент 1 курса факультета Международных отношений,
Университета мировой экономики и дипломатии**

**Научный руководитель: УМЭД, доцент кафедры Узбекского и русского языков,
PhD Азиза Арипова**

Аннотация:

В Тимуридское время на Центральноазиатском светиле, ярчайшем периоде культурно-научного ренессанса, наука, литература, искусство пробуждались в эпохальных масштабах. Богатая и культурная эра времен Тимуридов во многом опиралась на лингвистическую политику, которой много внимания уделяли Амир Темур и его потомки. Особенно стоит отметить Алишера Навои, который, безусловно, послужил основоположником взлета тюркского языка как научного и литературного языка. Легендарное произведение Muhokamat al-Lug'atayn было сосредоточено на демонстрации глубины тюркского языка, и в качестве его


доказательства - то, что в литературном плане он не уступает персидскому. В рамках данной статьи лет языка, проводимой Тимуридской империей, её социосубисыла и её влияние анализируется.

Ключевые слова: Тимуриды, Самарканд, тюркский язык, Шахрух Мирза, Алишер Навои, Хамса, Абу Райхан аль-Бируни

Temuriylar davri – Markaziy Osiyoning eng yorqin madaniy va ilmiy uygʻonish davrlaridan biri boʻlib, bu davrda ilm-fan, adabiyot va sanʼat keng miqyosda rivojlandi. Amir Temur va uning avlodlari til masalasiga katta eʼtibor qaratgan boʻlib, bu siyosat keyinchalik Temuriylar davrining yuksak madaniy darajaga erishishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, Alisher Navoiy turkiy tilning ilm-fan va adabiyot maydonida oʻz oʻrnini topishiga ulkan hissa qoʻshgan. Uning “Muhokamat ul-lugʻatayn” asari turkiy tilning boyligini va adabiy til sifatida fors tilidan kam emasligini isbotlashga xizmat qilgan. Ushbu maqolada Temuriylar imperiyasida olib borilgan til siyosati, uning jamiyatdagi oʻrni va taʼsiri haqida soʻz yuritiladi. Temuriylar davri XIV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo tarixida chuqur iz qoldirgan va bu davr ilm-fan, madaniyat va davlat boshqaruvi sohalarida rivojlangan yuksak davrlardan biri sifatida eʼtirof etiladi. Bu davrda nafaqat harbiy muvaffaqiyatlar va hududiy kengayishlar balki madaniy, ilmiy taraqqiyot va davlat boshqaruvi tizimining mukammallashuvi bilan ham ajralib turadi.

Temuriylar davrida koʻp tillilik odatiy hol boʻlib, turk, forsiy va arab tillari bir-birini toʻldirib, jamiyat hayotining turli sohalarida faol qoʻllanilgan. Turkiy til asosiy til boʻlgan xalq tili boʻlish bilan birga, harbiy, maʼmuriy va diplomatik yozishmalarda ham ishlatilgan. Forsiy til esa saroy adabiyoti va ilmiy asarlar tili sifatida katta nufuzga ega boʻlgan. Shuningdek, arab tili diniy va falsafiy bilimlarning asosiy vositasi boʻlib xizmat qilgan. Ushbu tillarning barchasi bir-biriga taʼsir koʻrsatib, ilm-fan va madaniyat rivojiga oʻz hissasini qoʻshgan.

Amir Temur va uning avlodlari til masalasini befarq qoldirmagan, balki uni davlat siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida koʻrgan. Temur oʻz davlati tarkibiga kirgan turli xalqlar va millatlarning tillariga hurmat bilan yondashgan. U davlat boshqaruvida, diplomatiya sohasida, ayniqsa diplomatik yozishmalarda turli tillardan foydalanishni ragʻbatlantirgan. Shuning uchun Temuriylar imperiyasida til siyosati muvozanatli boʻlib, bu xalqning ijtimoiy hayotida tilning beqiyos oʻrnini saqlab qolgan.



Turli Temuriy hukmdorlar, ayniqsa Shohrux Mirzo, Ulug‘bek va Husayn Boyqaro davrida til siyosati yanada rivojlangan. Xususan, Alisher Navoiy ona tili – turkiy tilni adabiyot va ilm-fan maydoniga olib chiqib, uning mavqeini mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shdi. Navoiy o‘sha davrda fors tilining hukmronligi davom etayotgan bir paytda turkiy tilning imkoniyatlari, uning boyligi va ifoda vositalari jihatidan hech qanday kamchilikka ega emasligini isbotlashga harakat qildi. U o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) asarida turkiy va forsiy tillarni qiyoslagan holda turkiy tilning ham adabiyot va ilm-fan tili bo‘lishga loyiq ekanini ta’kidlagan. Bu asar til siyosati nuqtai nazaridan inqilobiy ahamiyatga ega bo‘lib, turkiy tilning rivoji Bu asar til siyosati uchun muhim manba sifatida xizmat qilgan. Buyuk mutafakkir faqat turkiy tilni qo‘llash bilangina cheklanib qolmay, balki uning mavqeini mustahkamlash yo‘lida ham faol harakat qilgan. U o‘z asarlarini sodda, ravon va ommaga tushunarli va qabul qilinarli darajaga olib chiqdi. Bunga misol qilib uning “Xamsa” asari fors tilida yaratilgan shu kabi dostonlarga munosib javob bo‘lib, turkiy tilning adabiyotdagi imkoniyatlarini namoyish etdi.

Bu davrda ilm-fan va adabiyot rivojini jadallashtirish maqsadida turli tillardagi asarlarni tarjima qilish va ularni keng ommaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etgan. Tarjima faoliyati natijasida turkiy, forsiy va arab tillari o‘rtasida madaniy almashinuv kuchayib, ilmiy merosning boyishi hamda rivojlanishiga zamin yaratildi. Temuriy hukmdor Mirzo Ulug‘bek ilmiy faoliyatga beqiyos hissa qo‘shgan hukmdor sifatida tarixda juda katta iz qoldirgan. Uning davrida Samarqandda madrasalar va rasadxona barpo etib, ilmiy ishlarni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratdi. Uning homiyligi ostida ko‘plab ilmiy asarlar arab va fors tillaridan turkiy tilga tarjima qilindi va bu esa o‘z navbatida ilm-fanning keng tarqalishiga olib keldi. Bu davrda astronomiya, matematika, tibbiyot va tarixga oid asarlar o‘rganilib, tarjima qilindi.


Masalan, Ulug‘bekning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari ilmiy jihatdan juda katta ahamiyat kasb etib, nafaqat Sharqda, balki Yevropada ham tan olingan. Shu bilan birga, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino kabi buyuk allomalarning asarlari ham qayta nashr etilib, ularning ba’zilari turkiy tilga o‘girilgan. Tarjima jarayoni faqatgina ilm-fan rivojiga emas, balki Temuriylar davrida turkiy tilning mavqeini oshirishga ham xizmat qilgan. Temuriylar davrida shakllangan til siyosati nafaqat o‘sha davrda, balki bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi globallashgan dunyoda ham ko‘p tillilik muhim ahamiyat kasb etadi va bu ayniqsa, ona tilini rivojlantirish bilan birga, boshqa tillarni

o'rganish va ilmiy muloqotga ochiq bo'lish Temuriylar tajribasidan o'rganishimiz kerak bo'lgan muhim saboqlardan biridir. Alisher Navoiy turkiy tilni davlat va ilm-fan tili sifatida rivojlantirishga harakat qilgan bo'lsa, bugungi kunda o'zbek tilining xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamlashga intilish ham muhim vazifa sanaladi. Temuriylar davrida turkiy til saroy va ilm-fan sohalarida tobora nufuz kasb eta boshlagan bo'lsa, bugun ham o'zbek tilining ilmiy va rasmiy maqomini mustahkamlash uning xalqaro miqyosda obro'sini oshirish har birimiz uchun dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davridagi til siyosati ko'p tillilik asosida shakllangan bo'lib, davlat boshqaruvi, ilm-fan va adabiyot rivojiga xizmat qilgan. Amir Temur va uning avlodlari turkiy, forsiy va arab tillaridan maqsadga muvofiq foydalanib, madaniy merosni boyitishga xizmat qilganlar. Ayniqsa, Alisher Navoiy turkiy tilni adabiyot maydoniga olib chiqib, uning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan. Ushbu til siyosati bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bartold V. V. Turkiston tatarlari tarixi bo'yicha tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 2002.
2. Ahmedov B. Temuriylar davlati tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
3. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991.
4. Xudoyberdiyev A. Temuriylar davrida madaniyat va ilm-fan. – Toshkent: Sharq, 2010.
5. G'ulomov Ya. Amir Temur davlati va uning siyosati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
6. Erkinov A. Temuriylar davrida til va madaniyat rivoji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
7. Sodiqov M. O'zbek tilining tarixiy shakllanishi va rivoji. – Toshkent: Fan, 2018.
8. Bobur Z. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 1989.
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/shar-ning-buyuk-noti-lari> Sharqning buyuk notiqchilari //2021
10. [Hazrat Alisher Navoi a great representative of the art of speech](#) // 2021
11. [Буюк сўз санъаткори Алишер Навоийнинг серқирра ижодий мероси](#) // 2021



12. STUDY OF THE SCIENTIFIC AND LITERARY HERITAGE OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR // 2020